

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.TAR.01.04 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**ROZIMOVA YORQINOY YULDASHEVNA**

**O‘ZBEKISTONDA UZLUKSIZ HARBIY TA’LIMNING  
SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI (1991-2021-YILLAR)**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)**

**Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Science (DSc)**

**Rozimova Yorginoy Yuldashevna**

О‘zbekistonda uzluksiz harbiy ta’limning shakllanishi va rivojlanishi (1991-2021-yillar).....3

**Розимова Ёркиной Юлдашевна**

Формирование и развитие непрерывного военного образования в Узбекистане (1991-2021 гг).....33

**Rozimova Yorginoy Yuldashevna**

Formation and development of continuous military education in Uzbekistan (1991-2021).....67

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of publications.....72

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.TAR.01.04 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**ROZIMOVA YORQINOY YULDASHEVNA**

**O‘ZBEKISTONDA UZLUKSIZ HARBIY TA’LIMNING  
SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI (1991-2021-YILLAR)**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.DSc /Tar22 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www//ik-tarix.nuu.uz) va "ZiyoNet" (www.ziynet.uz) Axborot-ta'lim portalida joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Yunusova Xurshida Erkinovna**  
tarix fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Yermetov Avaz Abdullayevich**  
tarix fanlari doktori, professor

**Xasanov Baxtiyor Vaxapovich**  
tarix fanlari doktori, professor

**Xaknazarov Xudoyberdi Dilmurodovich**  
tarix fanlari doktori, dotsent


**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent axborot texnologiyalari universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Tar.01.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "23" 05 soatidagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Mirzo G'olib ko'chasi, O'zbekiston Milliy universitetining tarix fakulteti, 1-qavat, 106-auditoriya. Tel.: +99871 227-12-24; Faks: +99871 246-53-21, +99871 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz O'zbekiston Milliy universiteti).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin 72 raqam bilan ro'yxatga olingan (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Bosh bino). Tel.: +99871 236-46-55; faks: +99871 246-02-24

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "07" 05 kuni tarqatildi.  
(2025-yil "2" 02 dagi 41-raqamli reyestr bayonnomasi).

  
**U. M. Mavlonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi o'rinbosari, t.f.d., professor  
**J. E. Tog'ayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, t.f.d. (PhD), dotsent  
**N. U. Musayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d.,  
professor

## **KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Rossiya-Ukraina, Falastin-Isroil davlatlari o'rtasida bo'layotgan mahalliy urushlar ko'rsatdiki, davlat xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashda mamlakatda harbiy infrastruktura, sanoatni tezda qayta qurish va safarbarlik rejasi topshiriqlarining bajarilishini ta'minlash, qurol-yarog'lar va harbiy texnikaning miqdori bilan bir qatorda shaxsiy tarkibning professional tayyorgarligi masalasiga alohida e'tibor qaratish dolzarb vazifadir. Harbiy harakatlar davrida shaxsiy tarkib orasidagi yo'qotishlar bilan bog'liq muammoni bartaraf qilish zarurati harbiy ta'lim muassasalarining tashkil etilishi va ular faoliyatini tarixiy nuqtai nazardan o'rganish dolzarb masala hisoblanadi.

So'nggi yillarda jahondagi ilmiy tadqiqot markazlarida harbiy ta'lim va unda kadrlar tayyorlash masalasini o'rganishda sezilarli natijalarga erishildi. Xususan, harbiy ta'lim muassasalari kursantlarini xalqaro standartlar bo'yicha o'qitish, zamonaviy harbiy harakatlar tajribalari asosida tayyorlash, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish tajriba va muammolarini tahlil qilishni ilmiy asosda o'rganish yo'nalishida ishlari olib borilmoqda. Tadqiqotlar ko'rsatdiki, Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O'zbekistonda ham uzluksiz harbiy ta'limning vujudga kelishi, shakllanishi va uning professional armiya tuzilishidagi o'rni, harbiy kadrlarga bo'lgan talab va ularni tayyorlash tarixi yaxlit tizimli holda o'rganilmagan.

Respublikamizda Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni tomonidan harbiy mojarolar va zamonaviy jang amaliyotlari hamda milliy harbiy san'at tajribalaridan kelib chiqqan holda harbiy-akademik litseylarda harbiy kadrlar zaxirasini yaratish, oliy harbiy ta'lim muassasalarida malakali mutaxassislar tayyorlash, ularning malakasini oshirish, harbiy ilmni rivojlantirish, qo'shinlarning tayyorgarlik usul va uslublarini yanada takomillashtirish vazifalari qo'yildi. Oliy harbiy bilim yurtlari, "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseylari faoliyatini o'rganish, uzluksiz harbiy ta'lim tizimida boshlangan islohotlarni uzviy davom ettirish ishlariga alohida e'tibor qaratilib, bunda uzluksiz harbiy ta'limning tashkiliy masalalari, pedagogik va uslubiy asoslarini o'rganish ilmiy tadqiqotlar obyekti sifatida olindi. Mavzuni tarixiy jihatdan tahlil qilish, rasmiy hujjatlardan foydalangan holda ular faoliyatidagi tarixiy tajribalarni o'rganish ham dolzarb ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqot ishi "O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining oliy harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi Nizom"i (2015-yil 2-fevral), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarining harbiy tayyorgarlik o'quv bo'linmalari to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi №809-son qarori (2017-yil 9-oktabr), "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori (2017); O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash

konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori (2018), "O'smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlarida (2019-yil 28-iyun) belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining: I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi**<sup>1</sup>. Bugungi kunga kelib harbiy ish tarixi hamda harbiy ta'limning tashkil etilishi va rivojlanishi masalalari dunyoning qator universitet hamda ilmiy markazlari olimlari tomonidan Markaziy Osiyo davlatlari kontekstida o'rganilmoqda. Xususan, sohaga doir rasmiy raqamlar va dalillar e'lon qilinayotgan markazlar: World Bank, UNDP tashkiloti, United States Army Research Laboratory (AQSh harbiy Tadqiqot laboratoriyasi, AQSh), US Naval War college (AQSh Naval harbiy armiyasi kolleji), Centre Military science and training (Harbiy fanlar va tayyorgarlik markazi, AQSh), Universität der Bundeswehr München (Myunxen harbiy universiteti, Germaniya), Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vazirligi huzurida Markaziy ilmiy-tadqiqot instituti (Rossiya), Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vazirligi huzuridagi ilmiy markaz (Rossiya), Qozog'iston Respublikasi Mudofaa vazirligining Harbiy ilmiy markazi (Qozog'iston Respublikasi) shular jumlasidandir.

Jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida harbiy ta'lim tarixi masalalariga doir ilmiy natijalar olingan. Jumladan: Markaziy Osiyo davlatlari misolida O'zbekistonda iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlar sharoitida harbiy islohotlar, harbiy sohada kadrlarni tayyorlash vazifalari, uning mazmuni, an'anaviy shakl va usullari ishlab chiqarilgani asoslangan (US Naval War college), harbiy ta'lim muassasalari tinglovchilarining harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini ta'minlash va tashkil etish muammolari o'rganilgan (United States Army Research Laboratory), bo'lajak ofitserlarni tayyorlash ishida harbiy pedagogikaning o'rni va vazifalari, simulyatsiya mashqlari va boshqa turli xil o'qitish usullari ishlab chiqilgan (Centre Military science and training), Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan, O'zbekistonning harbiy ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorligi, harbiy xizmatchilarni o'qitishda harbiy-pedagogik tadqiqotlarining zamonaviy muammolari va didaktikasi (Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Markaziy ilmiy-tadqiqotlar instituti), maxsus harbiy ta'limning uslubiy asoslari

---

<sup>1</sup> Dissertatsiya bo'yicha xorijiy ilmiy adabiyotlar sharhi <https://www.arl.army.mil/>; <https://www.westpoint.edu/>; <https://ens.mil.ru/>; <https://engineering.purdue.edu/PMRI/>; <https://www.hsuhh.de/>; <http://www.kho.edu.tr/>; <https://www.foise.com/>; [www.svu.ru/](http://www.svu.ru/); [www.wojsko-polskie.pl/](http://www.wojsko-polskie.pl/); [www.sema.ru/](http://www.sema.ru/); <https://vva.mil.ru/>; <http://miafkr.edu.kg/>; <https://www.westpoint.edu/>; <https://nuo.kz/>; [www.mod.gov.kz/](http://www.mod.gov.kz/); <https://vagsh.mil.ru/>; <https://vas.mil.ru/>; <https://kvvu.mil.ru/>; <https://vumo.mil.ru/>; <https://mudofaa.uz/ru/category/markaz-ru/> va boshqa adabiyotlar asosida tayyorlandi.

yaratilgan (Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vazirligi huzuridagi ilmiy markazi), shaxsiy tarkib bilan ishlashda ofitserlarning malaka darajasi masalalari, shuningdek, harbiy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish xususiyatlari (Qozog‘iston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Harbiy ilmiy markazi) tadqiq etilgan.

So‘nggi yillarda harbiy ta‘lim tarixi bo‘yicha ilmiy izlanishlarda quyidagi yo‘nalishlar ustuvor bo‘lib qolmoqda: harbiy kadrlarni tayyorlash ishini zamon talabiga moslashtirish; o‘qitish ishini tashkil etishda texnologik bazani rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish; mudofaa sanoati sohasida ilm-fanni talab qiluvchi zamonaviy loyihalarni amalga oshirishini asoslash; shuningdek, harbiy kadrlar tayyorlash bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish; harbiy ta‘lim tizimidagi muammolarini o‘rganish, qo‘shinlarning jangovar tayyorgarligini va kundalik faoliyatini tashkil etish; ilm-fan, texnika, texnologiyalar, iqtisodiyotning zamonaviy yutuqlari; mamlakatning iqtisodiyoti va madaniyatining ijtimoiy istiqbolini hisobga olgan holda harbiy ta‘limda kadrlar tayyorlash usullarini tizimli takomillashtirish; milliy harbiy san‘at tarixi hamda zamonaviy jang amaliyotlarini chuqur o‘rganish va uni amaliyotga joriy etish; qo‘shinlar tayyorgarligi, harbiy ta‘limni tashkil etishning usul va uslublarini yanada takomillashtirish.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbekistonda uzluksiz harbiy ta‘limning shakllanishi va rivojlanishi masalasiga oid adabiyotlar ikki guruhga bo‘lib o‘rganilgan:

1. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda nashr qilingan ishlar.
2. Xorijiy adabiyotlar.

Tadqiqotlar tarixi shuni ko‘rsatadiki, uzluksiz harbiy ta‘lim shakllanishi va uning keyingi rivojiga oid ilmiy izlanishlar, pedagogika, psixologiya, huquqshunoslik fanlari nuqtayi nazaridan o‘rganilgan bo‘lib, asosiy e‘tibor sohaning o‘ziga xos tomonlari, harbiy tayyorgarlik, o‘qitiladigan fanlarning mohiyati, pedagogik tahlilga oid asarlar tahlili asosida amalga oshirilgan. O‘zbekistonda uzluksiz harbiy ta‘limni tizimli o‘rganish hamda unda amalga oshirilgan islohotlarning tarixiy jihatlari to‘la tadqiq etilmaganligi bilan xarakterlidir. Tadqiqot ishi bo‘yicha tarixiy yondashuvlarning to‘liq tahlili va o‘ziga xos jihatlari birinchi bobning tortinchi paragrafida batafsil bayon etilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Ushbu dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti hamda O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2001-yil 29-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar akademiyasida harbiy-ilmiy tadqiqotlarni yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 207-sonli buyrug‘ining 1-ilova ichida keltirilgan “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar akademiyasida uzoq, o‘rta va yaqin istiqbolda harbiy-ilmiy tadqiqotlar olib borishning asosiy mavzulari va ustuvor yo‘nalishlari” rejasiga asosan amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** mustaqillik yillarida uzluksiz harbiy ta‘lim yo‘nalishida yoshlarni vatan himoyasiga tayyorlash, harbiy kasbga yo‘llash, o‘rta

maxsus va oliy harbiy ta'limda amalga oshirilgan islohotlarning Mudofaa vazirligi tizimida professional armiyaning shaklanishidagi o'rnini hamda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etishning tarixiy jihatlarini ochib berishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

Umumta'lim va o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim tizimida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikning tashkil etilishi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, ularning natijalarini ilmiy muomalaga kiritish;

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining yoshlarni vatan himoyasiga hamda harbiy kasbga tayyorlashdagi o'rnini yoritish;

O'zbekistonda harbiy ta'lim va ta'lim muassasalarining tarixiy ildizlarini ko'rsatib berish;

o'rta maxsus harbiy ta'limning shakllanishi va rivojlanishida harbiy yo'nalishdagi maktab internatlar, litseylar hamda "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseylarining o'rnini tadqiq qilish;

mustaqillik yillarida oliy harbiy ta'lim tizimida ko'p tarmoqli ofitser kadrlar tayyorlash tizimiga o'tilishi, yangi oliy harbiy ta'lim muassasalarining tashkil etilishi va ularda amalga oshirilgan islohotlarning professional armiya rivojlanishiga qo'shgan hissasini tahlil etish;

harbiy sport o'yinlarining yoshlarni harbiy kasbga yo'llashdagi o'rnini tahlil qilish;

yoshlarni harbiy kasbga yo'llashda ma'naviy-ma'rifiy ishlar hamda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining tutgan o'rni va rolini ko'rsatib berishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida umumta'lim maktablarida boshlang'ich harbiy ta'lim, O'zbekiston mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tasarrufidagi oliy harbiy ta'lim muassasalari, fuqarolik oliy ta'lim muassasalari harbiy kafedralari va harbiy-akademik litseylardagi ta'lim tizimi faoliyatini tahlil qilish belgilab olingan.

**Tadqiqotning predmetini** Mustaqil O'zbekistonda uzluksiz harbiy ta'lim tizimining isloh qilinishi, harbiy-akademik litseylar, yangi harbiy bilim yurtlarining tashkil etilishi, fuqarolik oliy ta'lim muassasalari harbiy kafedralari va ularning faoliyatini natijalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tizimlashtirish, og'zaki tarix, muammoli yondashuv, tarixiy qiyosiy, statistik va mazmuniy, tanqidiy tahlil, ma'lumotlarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Sobiq sovet armiyasining tanazzulga yuz tutishining sababi va uning oqibatlari tahlil etilgan, O'zbekiston mudofaa tizimida milliy armiyaga asos solinishining, mamlakatda professional armiya tashkil etilishining tarixiy zaruriyati va bunga turtki bo'lgan tarixiy omillar aniqlangan;

Qurolli Kuchlar faoliyati va jangovar tayyorgarligi ta'minlashda kasbiy jihatdan tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxsiy tarkibni shakllantirishga yo'naltirilgan

umumta'lim maktablaridan oliy harbiy ta'limgacha bo'lgan uzluksiz harbiy ta'lim shakllanganligi aniqlandi hamda uzluksiz harbiy ta'lim faoliyati tahlil qilingan;

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda mudofaa tizimini yaratish va mustahkamlash, professional armiya shakllantirishda qo'yiladigan talablaridan kelib chiqqan holda turli harbiy mutaxassisliklar yo'nalishida kadrlar tayyorlashning samarali tizimi yaratilganligi, harbiy mutaxassislikni (ma'lum kasbni, ixtisoslikni) egallash, kasbiy shakllanish, jangovar mahoratni namoyon etish kabilar yaratilganligi aniqlangan;

Qurolli Kuchlarda hamda professional harbiy kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgan uzluksiz harbiy ta'lim tizimida jahon va mintaqadagi harbiy-siyosiy vaziyat sababli mudofaa hamda xavfsizlikka tahdidlarning ortib borishi kabi omillardan kelib chiqib islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilganligi dalillangan;

Davlat mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tasarrufidagi oliy harbiy bilim yurtlarini ko'p tarmoqli ofitser kadrlar tayyorlash tizimiga o'tkazish, fuqarolik oliy o'quv yurtlarida zahiradagi ofitserlarni tayyorlashga yo'naltirilgan harbiy kafedralar tashkil etish, harbiy kasbga yo'naltirilgan litseylar ochish, harbiy kadrlar tayyorlashni harbiy salohiyati rivojlangan davlatlarning standartlari darajasida tashkil qilish ustuvor vazifa sifatida belgilanganligi va bu chora-tadbirlar mamlakat Qurolli Kuchlarining professional asosda shakllanishida asos bo'lganligi ochiqqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

O'zbekistonda uzluksiz harbiy ta'lim tizimining o'ziga xosligi va rivojlanish tarixiga doir asarlar, arxiv hujjatlari, statistik to'plam va hisobotlardan tashqari, o'rganilayotgan davr milliy matbuotida mazkur masalaga oid e'lon qilingan ma'lumotlar ilmiy iste'molga kiritilib, ular asosida O'zbekistonda uzluksiz harbiy ta'lim tarixi, respublika hayotida tutgan o'rni kabi masalalar ochib berilgan;

1991-2021-yillarda uzluksiz harbiy ta'lim tarixiga oid ilmiy xulosalar zamonaviy fan tarmoqlari (tarix, pedagogika, psixologiya, huquqshunoslik) yo'nalishlaridagi izlanishlarga asoslangan va arxiv hujjatlari, harbiy va tarixiy asarlar, shuningdek, davriy matbuotdagi 70 ga yaqin maqolalar aniqlanib, ilmiy muomalaga kiritilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** uning manbaviy asosi hujjatlarga asoslanganligi, tarix fanida tan olingan nazariy yondashuv va usullarning qo'llangani, O'zbekiston Milliy arxivi, Toshkent Davlat markaziy arxivi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi arxivi; O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining markaziy arxivi, O'zbekiston Respublikasi Maktab va maktabgacha ta'lim vazirligi hamda Respublika ta'lim markazining idoraviy arxivi, Oliy ta'lim muassasalari hamda harbiy-akademik litseylarning joriy arxivlari, ish yuritish hujjatlaridan foydalanilgani, dala tadqiqotlari, jahon harbiy ta'limi tizimini tahliliy uslublarga tayangani, xulosalarni ilgari surishda amalga oshirilgan ishlarning natijalar matniga asos qilib olingani, ilmiy natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O‘zbekiston Respublikasi harbiy ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlash masalalarida metodologik yondashuvlarni rivojlantirish, bu sohada amalga oshirayotgan ishlarda yangicha ilmiy qarashlarni va uslublarni mukammallashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning natijalarining *amaliy ahamiyati* O‘zbekistonda uzluksiz harbiy ta’lim tizimini o‘rganishga mo‘ljallangan maqsadli davlat dasturlarining bajarilishida hamda harbiy ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha maxsus kurs, o‘quv qo‘llanmalar va darsliklar tayyorlashda foydalaniladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralar, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar, Maktabgacha va maktab ta’limi, Madaniyat, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirliklari, Yoshlar ishlari agentligi, Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Yozuvchilar uyushmasi, Respublika “Nuroni” jamg‘armasi, O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi, “Vatanparvar” tashkiloti, harbiy-ma’muriy sektorlar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarining asosiy subyektlari hisoblanishi haqidagi taklifi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyundagi 267-sonli qarori bilan tasdiqlangan 2023-2027-yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish konsepsiyasining 12-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyatining Axborot-tahlil va yuridik ta’minlash departamenti 2024-yil 18-iyuldagi 13-sonli dalolatnomasi). Oliy harbiy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirishga nomzodlarni saralab olish, qabul qilish hamda yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirishda ijobiy natijalar bergan;

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa ishtirokida o‘tkaziladigan “Uch avlod uchrashuvi”, “Ochiq eshiklar kuni”, “Ommaviy vatanparvarlik oyli” tadbirlarini tashkillashtirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2022-yil 23-avgustdagi 25/3218-sonli ma’lumotnomasi). Tadqiqot natijalari bo‘yicha berilgan takliflar vazirlik tizimida harbiy xizmatchilarning vatanparvarlik tadbirlarini o‘tkazishda keng qo‘llangan. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar tarixi bilan bog‘liq ma’lumotlar va shu yo‘nalishda tadqiqotchi tomonidan nashr etilgan ilmiy maqolalar Mudofaa vazirligi tizimidagi oliy harbiy ta’lim muassasalarida O‘zbekiston tarixi fanida, mazkur fan to‘g‘aragi mashg‘ulotlarida, Ma’naviyat soatlarida keng foydalanilmoqda;

harbiy kadrlar tayyorlashda mamlakat va xorijiy davlatlarda orttirilgan tajribalar, harbiy-akademik litseylar ilmiy-pedagogik kengashlari faoliyati, o‘quv jarayonlarining tashkil etilishidagi eng ilg‘or tajribalar harbiy ta’lim mazmunini mukammallashtirish, ilmiy dalillar bilan boyitish, kadrlarni yetuk, vatanparvar, zamonaviy harbiy texnika va qurollardan samarali foydalana oladigan qilib tarbiyalash, yoshlarni harbiy kasblarga yo‘naltirish, harbiy sport klublariga, umumta’lim maktablari o‘quvchilari orasida o‘tkaziladigan harbiy-sport musobaqalariga jalb etish bo‘yicha dissertatsiyada keltirilgan ma’lumotlar o‘quv, targ‘ibot-tashviqot tadbirlarida ham foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasining 2022-yil 5-sentyabrdagi 38/35-67-sonli

ma'lumotnomasi). Natijalar IIV Akademiyasida Yangi O'zbekiston tarixi fanini o'qitishda keng qo'llanilgan;

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent "Temurbeklar maktabi" muzey konsepsiyasini ishlab chiqish, devoriy ko'rgazmalarni mavzulari bo'yicha tarixiy ma'lumotlar bilan ta'minlash, ko'rgazma ashyolarini mavzular yo'nalishi bo'yicha joylashtirish kabi amaliy ishlarga jalb etilgan (O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining 2022-yil 31-oktyabrdagi 11466/B-sonli dalolatnomasi). Ilmiy natijalardan Milliy gvardiya ma'naviyat va ma'rifat markazi hamda Toshkent "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyi muzey fondlarini boyitishda, muzeyga tashrif buyuruvchilarning tarixiy tafakkurini shakllantirishga xizmat qilgan;

"O'zbekiston tarixi" telekanalida efirga uzatilgan "Taqdimot" ko'rsatuvi ssenariysini yozishda tadqiqot ma'lumotlari, tarixiy dalillar, ilgari surilgan ilmiy xulosalardan ma'lumot sifatida foydalanildi (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2024-yil 6-sentyabrdagi 02-31-990-sonli dalolatnomasi). Berilgan tadqiqot natijalaridan teleko'rsatuvlar ssenariylarini ishlab chiqishda keng foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro, 7 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyada aprobatsiyadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarning asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 44 ta maqola, jumladan, 8 maqola xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Tadqiqot ishi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya ishi 237 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va uni o'rganishning zarurati, o'rganilganlik darajasi va ilmiy yangiligi asoslangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, obyekti, predmeti, usullari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinganligi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiya ishining birinchi bobi "**O'zbekistonda uzluksiz harbiy ta'lim asoslari**" deb nomlanib, bunda O'zbekistonda mudofaa va harbiy ta'lim tizimi yo'lga qo'yilishining tarixiy ildizlari, mavzuning nazariy metodologik asoslari, manbashunosligi va tarixshunosligi o'rganilgan. O'zbekiston hududida harbiy ta'lim tizimining shakllanishi va rivojlanishi shartli ravishda beshta bosqichga bo'lindi.

*Birinchi bosqich*, Rossiya imperiyasi Turkistonda o'z mavqeyini harbiy kuchga tayangan holda saqlab qolish uchun 1899-yil 20-iyunida Turkiston harbiy

mahkamasining 179-sonli buyrug‘iga asosan 2-Orenburg kadetlar korpusining 100 o‘quvchiga mo‘ljallangan Toshkent tayyorlov maktabiga asos soldi<sup>2</sup>. Tayyorlov maktabi o‘quvchilarni 2-Orenburg kadetlar korpusining 3-sinfiga kirishga tayyorlashga yo‘naltirildi<sup>3</sup>. Maktabga harbiy akademik litsey millat vakillari qabul qilinishi taqiqlangan. 1917-yil 25-oktabr davlat to‘ntarishidan so‘ng Toshkent shahri soveti ijro qo‘mitasining 1918-yil 23-iyuldagi 110-sonli dekreti bilan mazkur ta‘lim tizimi tugatildi<sup>4</sup>.

Turkiston Sovet Respublikasi Harbiy komissariatining 1918-yil 12-iyuldagi №456-sonli buyrug‘i bilan Toshkentda Turkiston Sovet komandirlar kursi tashkil etilishi bilan *ikkinchi bosqich* boshlandi<sup>5</sup>. Armiyada 1923–1924-yillarda o‘tkazilgan harbiy islohotlar natijasida Turkkommissiyaning 1923-yildagi qarorlari asosida Farg‘ona shahrida piyodalar va otlq yo‘nalishida kichik komandirlar tayyorlashga ixtisoslashtirilgan milliy bo‘linmalar, Toshkentda esa pulemyotchilar, granatomyotchilar, aloqachilar, razvedkachilar bo‘linmalari tashkil etildi. Mazkur maktab 1924-yil 24-maydan 1927-yil 22-avgustgacha ikkita bitiruv kursini tayyorlab chiqardi. Shundan so‘ng Toshkent birlashgan harbiy maktabi tarkibiga qo‘shib yuborildi<sup>6</sup>.

Davlat arbobi Fayzulla Xo‘jaev Buxoro Xalq Sovet Respublikasi osoyishtaligini ta‘minlashda o‘zining armiyasi, militsiya, xavfsizlik organlari bo‘lishini zarur deb bildi<sup>7</sup>. Buxoro Respublikasida 1922-yilda Xalq Nozirlar Kengashi nomli birinchi Buxoro yig‘ma harbiy qo‘mondonlik kursi tashkil etildi. Kursda 1920-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra 1486 tinglovchi bo‘lib, ularning faqat 96 nafari musulmonlar edi<sup>8</sup>. 1922-yilda kurs qoshida o‘rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash ishi yo‘lga qo‘yilib o‘qish muddati 1 yil 2 oy qilib belgilandi<sup>9</sup>. Mehnatkashlar farzandlari uchun Buxoro harbiy-mehnat tayyorlov maktabi tashkil etilib, uning Nizomi 1923-yil 10-dekabrda tasdiqlandi. Buxoro va Xorazm respublikalari O‘zbekiston SSR tarkibiga qo‘shib yuborilgach harbiy ta‘lim tizimiga ham barham berildi.

Harbiy ta‘lim tizimining *uchinchi bosqichi* Ikkinchi jahon urushi yillariga to‘g‘ri keldi. Urush davrida O‘zbekistonga umumiy hisobda 35 ta harbiy bilim yurti, 7 harbiy akademiya, “Выстрел” kurslari, 19 ta aviatsiya maktablari<sup>10</sup>, Ukrainadan evakuatsiya qilingan va Farg‘ona viloyatining Quva posyolkasiga joylashtirilgan 6-sonli Harbiy dengiz maxsus maktabi, Namangan shahrida faoliyat ko‘rsatgan 2-sonli Moskva harbiy musiqa o‘rta maxsus maktablari ham bor edi<sup>11</sup>. 1943-yil 4-sentabrda Xalq komissarlar sovetining №946-sonli qarori bilan Toshkent shahrida Ichki ishlar vazirligining suvorovchilar harbiy bilim yurti

<sup>2</sup> O‘z MA, 51- fond. 1- ro‘yxat, 1-ish, 6-varaq.

<sup>3</sup> O‘z MA, 51- fond. 1- ro‘yxat, 2-ish, 1-varaq.

<sup>4</sup> O‘z MA, 51-fond. 1- ro‘yxat. 54-ish, 53-varaq.

<sup>5</sup> Ташкентское краснознаменное. Т.: Узбекистан, 1988. С. 8.

<sup>6</sup> Ташкентское общевоинское училище имени В.И.Ленина. Т.: Узбекистан, 1978. – С. 54-55.

<sup>7</sup> Majid Hasanov. Fayzulla Xo‘jaev. Т.: O‘zbekiston, 1990. – В. 113-114.

<sup>8</sup> O‘z MA, 1728-fond, 1-ro‘yxat, 1-ish, 1-5-varaq.

<sup>9</sup> O‘z MA, 1728-fond, 1-ro‘yxat, 24- ish, 25- varaq.

<sup>10</sup> Белоножко С.Е. На самых южных рубежах. -Т.: Узбекистан, 1979. – С.114.

<sup>11</sup> Постановления Совнаркома СССР. Собрание постановлений и распоряжений правительства Союза Советских Социалистических Республик от 19 октября. 1940, - № 22. — С.1004-1005.

tashkil etildi. Bilim yurti 15 marta o'z bitiruvchilarini chiqardi. Ularning 83 foizi harbiy bilim yurtlarida ta'lim oldilar. Birinchi o'zbekistonlik kosmonavt uchuvchisi, general-mayor V.A. Djanibekov mazkur maktab bitiruvchilaridan.

*To'rtinchi bosqich* 1983-yildan boshlanib, bunda Toshkent, Farg'ona, Samarqand va Urganch shaharlarida harbiy tayyorgarlikni kuchaytirishga yo'naltirilgan o'rta maxsus umumta'lim maktab internatlari tashkil etildi.

*Beshinchi bosqich* 1991-yil O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach o'z Qurolli Kuchlariga asos solishi bilan boshlandi. Bu bosqichda harbiy tayyorgarlikni kuchaytirishga yo'naltirilgan o'rta maxsus umumta'lim maktab internatlari o'quvchilarni harbiy kasbga yo'naltiruvchi litsey sifatida 1992-yilda qayta tashkil etildi. Mazkur litseylar 2007-yilda harbiy akademik litseyga, 2017-yildan "Temurbeklar maktabi"ga aylantirildi. TOUQBY, ChOTQMBY, SOHAQMBYlari 1992-yilda ko'p tarmoqli harbiy kadrlar tayyorlash tizimiga o'tkazildi. Hukumat qarori bilan 1993-yil 13-mayda Toshkent aloqa instituti qoshida Maxsus harbiy aloqa fakulteti, 1994-yili Jizzax oliy harbiy aviatsiya bilim yurti, 1995-yil sentabrda Qurolli Kuchlar akademiyasi, 2020-yil 22-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy tibbiyot akademiyasi o'z faoliyatini boshladi.

Harbiy ta'lim rivojining metodologik jihatlari qadimgi davrdan boshlanib, o'rta asrlardagi turli o'zaro urushlar, yirik saltanatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishida jangovar bilimlarning o'rni, mustamlaka sharoitida harbiy soha tanazzulining mazmun-mohiyatini tushunishga asoslanadi. Jangovar harakatlar olib borishning sabablari va natijalarini to'g'ri talqin qilish, o'tmish xatolaridan saboq chiqarish kelajakning rivoji ekanligi harbiy ta'limning asosiy qonuniyati hisoblanadi. Harbiy ta'limning ilmiy asoslangan nazariy-metodologik asoslari O'zbekistonda tarixiy tajriba va jahon andozalari asosda professional armiyani takomillashtirish, harbiy kadrlar tayyorlash tizimining huquqiy bazasi yaratilishi va takomillashuviga olib chiqishga xizmat qildi.

O'zbekistonda harbiy kadrlar tayyorlash mavzusining manbashunosligi va tarixshunosligini o'rganishning manbaviy asosini O'zbekiston Milliy arxivining 47-fond–Turkiston o'lkasi xalq ta'limi ministrligi o'quv muassasalari boshqarmasi; 50-fond – MKT "Vatanparvar" Markaziy kengashi; 94-fond – O'zSSR Maorif Ministrligi; 619-fond – Sobiq qizil gvardiyachilar va qizil partizanlar ishlari bo'yicha Toshkent shahar komissiyasi; 837-fond – O'zSSR Xalq komissarlari Soveti; 2454-fond – O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi; Toshkent markaziy davlat arxivi 169-fond – Harbiy telekommunikatsiya yo'nalishidagi Toshkent akademik litseyi; 975-fond – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi arxivi; 45-fond–O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi Markaziy arxivi; Maktab va maktabgacha ta'lim vazirligi hamda Respublika ta'lim markazining idoraviy arxivi; Mudofaa vazirligi harbiy kadrlar tayyorlash boshqarmasi oliy harbiy ta'lim muassasalari ish yuritish materiallari; Toshkent, Samarqand va Farg'ona viloyatlaridagi "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyi ish yuritish materiallari tashkil etdi. Harbiy ta'limga oid ko'plab tadqiqotlarni o'rganish ko'rsatdiki harbiy xizmatchilarni tayyorlashning falsafiy,

ijtimoiy, pedagogik, harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, chaqiriqqacha boshlang'ich harbiy ta'lim va jismoniy tayyorgarlikning pedagogik xususiyatlariga<sup>12</sup> e'tibor qaratilgan. Shunday bo'lsa-da, tadqiqotlarni tarixshunoslik tahliliga tortish orqali masalaning ko'plab muhim jihatlarini ko'rsatish mumkin.

Mavzuning falsafiy jihatlarini, harbiy ta'limda ayollar masalasini yoritishda R.S. Samarov<sup>13</sup>, U.S. Temirova<sup>14</sup>, professional harbiy kadrlarni tayyorlashning ijtimoiy-falsafiy asoslarini N.J. Eshnaev<sup>15</sup> tahlil qiladi. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim samaradorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, ularni takomillashtirish, yoshlarni harbiy tayyorgarlikka jalb etishda A. Saxibov<sup>16</sup>, R.A. Hamroqulov<sup>17</sup>, S.R. Uraimov<sup>18</sup>, Z.J. Abralova<sup>19</sup> tomonidan olib borilgan tadqiqotlar e'tiborga sazovor.

A.M. Nishonova harbiy pedagogikani rivojlantirish masalasini ilmiy asosda o'rgangan bo'lsa<sup>20</sup>, O.I. Anarbaev<sup>21</sup>, A.Y. Sotvoldievning<sup>22</sup> tadqiqotlarida zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish muammolari tadqiq qilingan. Z.Sh. Alimardonov<sup>23</sup> bo'lajak ofitserlarning kasbiy komponentligini takomillashtirish masalasining amaliyotdagi holatini oliy ta'lim muassasalari ofitserlari ishtirokida o'rgandi. Sh.O. Mamadalievning "Vatanparvarlik asoslari"<sup>24</sup> o'quv-metodik qo'llanmasi hamda "Vatanparvarlik tarbiyasi"<sup>25</sup> darsligi, A.D. Redjaboev<sup>26</sup>, A.T. Dusbaev<sup>27</sup>, R.Y. Qurbonov<sup>28</sup>, X. Xolmatov<sup>29</sup> maqolalarida

---

<sup>12</sup> Redjaboyev A.D. Yoshlarni milliy istiqloq g'oyasi asosida harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik asoslari. Diss... Ped. fan.nomz. – Toshkent, 2004. – 167 b.; Temirova U.S. Harbiy xizmatchi xotin-qizlarni kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishning tarbiyaviy omillari. Diss... Ped. fan.nomz.. -Toshkent, 2008. -157 b.; Uraimov S.R. Harbiy texnika litseylari o'quvchilari amaliy jismoniy tayyorgarligining pedagogik xususiyatlari. Diss... Ped. fan.nomz. – Toshkent, 2019. – 130 b.

<sup>13</sup> Samarov R.S. Qurolli Kuchlar tizimining feminizatsiyalashuvi: rivojlanishning o'ziga xosligi va ijtimoiy mexanizmi. (O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari misolida). Falsafa fan dokt. diss.– Toshkent, 2005. – 346 b.

<sup>14</sup> Temirova U.S. Harbiy xizmatchi xotin-qizlarni kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishning tarbiyaviy omillari. Diss... Ped. fan.nomz.. – Toshkent, 2008. – 157 b.

<sup>15</sup> Eshnaev N.J. O'zbekiston Respublikasida professional harbiy kadrlarni tayyorlashning ijtimoiy-falsafiy asoslari. Diss... Falsafa fan. nomz. – Toshkent, 2008. – 164 b.

<sup>16</sup> Saxibov A. Chaqiriqqacha harbiy ta'limda axborot texnologiyalari. – Toshkent, 2012. – 106 b.

<sup>17</sup> Hamroqulov R.A. Chaqiruvga qadar yoshlarining harbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish. Diss... ped. fan. nomz.. – Toshkent, 2005. – 149 b.

<sup>18</sup> Uraimov S.R. Harbiy texnika litseylari o'quvchilari amaliy jismoniy tayyorgarligining pedagogik xususiyatlari. Diss... Ped. fan.nomz. – Toshkent, 2019. – 130 b.

<sup>19</sup> Abralova Z. Dj. Methodological theoretical basis of military patriotic education // Scientific aspects and trends in the field of scientific research. International scientific online conference. – USA, 2022. – P. 11-13.

<sup>20</sup> Nishanova A.M. The role of military pedagogy in the training of military personnel // Journal Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Vol. 9, Issue 5. 2023. – P. 114-117.

<sup>21</sup> Anarbaev O.I. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida rezervdagi va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish. h.f.f.d.( PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2024. – 189 b.

<sup>22</sup> Сотводдиев А.Ю. Пути реализации требований к подготовке офицеров запаса на военных факультетах в педагогических вузах Республики Узбекистан // Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. Vol. 3. 31.

<sup>23</sup> Alimardonov Z.Sh. Oliy harbiy ta'lim muassasalarida bo'lajak ofitserlarning kasbiy komponentligini takomillashtirish. Diss... Ped. fan.nomz. – Toshkent, 2019. – 198 b.

<sup>24</sup> Mamadaliev Sh., Quronov M, Yusupov E. va bosh. "Vatanparvarlik asoslari".//O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021. – 78 b.

<sup>25</sup> Mamadaliev Sh., Xodjibayev M., Mamedov V. va bosh. "Vatanparvarlik tarbiyasi".//O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2022. –156 b.

<sup>26</sup> Redjaboyev A.D. Yoshlarni milliy istiqloq g'oyasi asosida harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik asoslari. Diss... Ped. fan. nomz. – Toshkent, 2004. – 167 b.

kursantlarni milliy istiqloq g'oyasi va harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma'naviy ongini shakllantirishda tarixiy tajribalarni qo'llashni muhim deb belgilaydi.

Tarix fani sohasida A. Yaxyaeva tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida Qurolli Kuchlarga asos solinishi va rivojlanishi tarixi 1992-yildan 2005-yillargacha bo'lgan davrini o'z ichiga olgan. Bu jarayonda oliy harbiy ta'lim tizimi yaratilishi, Sovet Ittifoqi davrida O'zbekiston hududida faoliyat ko'rsatgan Toshkent, Chirchiq va Samarqand oliy harbiy bilim yurtlarida harbiy kadrlar tayyorlash yo'nalishida amalga oshirilgan islohotlar masalalari yoritilgan<sup>30</sup>.

Rus tadqiqotchilaridan S.Reznik<sup>31</sup>, S.M.Filkov<sup>32</sup> harbiy tayyorgarlikning nazariya va amaliyotini Rossiya, AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniya davlatlari tajribasi asosida tadqiq etadi. Oliy ta'lim muassasalarida harbiy tayyorgarlik masalasiga to'xtalgan V.V.Buyanov<sup>33</sup>. N.I.Kolesnikov<sup>34</sup> professional harbiy kadrlar yuksak milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalanishi kerakligini ta'kidlaydilar. A.V.Mejuev<sup>35</sup>, O.D.Mulyava<sup>36</sup> harbiy kadrlar tayyorlashda ularni qurolli kuchlarda ijtimoiy va kasbiy moslashuvning o'ziga xos xususiyatlariga qaratilgan.

Yevropa va amerikalik tadqiqotchilardan Y.Doll<sup>37</sup>, J.D.Fletcher, P.R. Chatelier, G.B<sup>38</sup>. Forste<sup>39</sup> tomonidan e'lon qilingan ishda AQSh harbiy ta'limining umumiy ko'rinishi, o'qitiladigan fanlar, kadrlar tayyorlashda asosiy e'tibor ayollarning umumiy tayyorgarligi, harbiy topshiriqlarni bajarish uchun zarur bo'lgan

---

<sup>27</sup> Dusbayev A.T. Yoshlarni chaqiriqqacha tayyorgarlik va harbiy vatanparvarlik tarbiyasini tashkillashtirishning asosiy yo'nalishlari va vazifalari // O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari – mamlakatimiz milliy xavfsizligining kafolatidir” (respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari). – Toshkent, 2014. – B. 32.

<sup>28</sup> Qurbanov R.Y. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy istiqloq g'oyasining roli // O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari – mamlakatimiz milliy xavfsizligining kafolatidir” (respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari). – Toshkent, 2014. – B. 15-17.

<sup>29</sup> Xolmatov X. Kursantlarning ma'naviy ongini shakllantirishda tarixiy tajribani o'rganishning ahamiyati // O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari – mamlakatimiz milliy xavfsizligining kafolatidir” (respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari). – B. 17-20.

<sup>30</sup> Яхьяева А.Х. Ўзбекистон Республикаси Қуrollи Кучларининг шаклланиши ва ҳарбий таълимнинг ривожланиши тарихи (1991-2005 йиллар Мудофаа вазирлиги мисолида). // т.ф.ф.д.(PhD) дисс. автореферати – Тошкент, 2022. – Б.57.

<sup>31</sup> Резник С.Д. Технологии и организация деятельности. – М., 2010. – С. 54-56.

<sup>32</sup> Филков С.М. Система военной подготовки в гражданских вузах: теория и практика функционирования и совершенствования. – М., 2002. – 228 с.

<sup>33</sup> Буянов В.В. Формирование профессиональной готовности выпускников вузов к деятельности в силовых структурах институтов власти Российской Федерации (социологический анализ). Автореф. дисс. канд. соц. наук. – Владивосток, 2004. – 28 с.

<sup>34</sup> Колесников Н.И. Некоторые проблемы подготовка офицерских кадров // Войсковой вестник. Москва, 2003. – № 12. – С. 45-49.

<sup>35</sup> Межуев А.В. Формирование готовности к жизнедеятельности в образовательной среде военного вуза у курсантов младших курсов: Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Астрахан, 2008. – 22 с.

<sup>36</sup> Мулява О.Д. Подготовка студентов военных кафедр к военно-профессиональной деятельности в новой социокультурной среде. Автореф. дисс. канд. соц. наук. – Москва, 2001. – 34 с.

<sup>37</sup> Doll Y. US Army women general officers and their strategies for ascension. International Journal of Business strategies for ascension. International Journal of Business Strategy. 2007. VII (3), – С. 1-10.

<sup>38</sup> Fletcher J. D. Chatelier P. R. An Overview of Military Training // Institute for Defense Analyses. – Virginia. 2000, 2002. – 845-2000 p. <https://www.researchgate.net/publication/235171062>.

<sup>39</sup> Fletcher J. D. Chatelier P. R. An Overview of Military Training // Institute for Defense Analyses. – Virginia. 2000, 2002. – 845-2000 p. <https://www.researchgate.net/publication/235171062>

ko'nikmalarning o'rgatilishi qanday olib borilayotganligi yoritiladi<sup>40</sup>. Xorijlik olimlarning ilmiy tadqiqotlarida O'zbekistondagi uzluksiz harbiy ta'lim tizimi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lmasa-da, ularning nazariy asoslari, metodologiyasi va harbiy ta'limning tashkil etilishining e'tiborli jihatlarini O'zbekiston tajribasi bilan qiyoslab o'rganishda muhim hisoblanadi. Adabiyotlar tahlili ko'rsatadiki, o'rganilayotgan mavzu tarixiy jihatdan yaxlit tahlil qilish zaruratini keltirib chiqaradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi **Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich harbiy tayyorgarligining tashkil etilishi**" bobi yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash masalalarini yoritgan. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng dastlabki "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" (keyingi o'rinlarda ChQBT) fanini o'qitish masalasi O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziri hamda Xalq ta'limi vazirining 1994-yildagi 4/1-sonli buyrug'iga asosan qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida o'smirlarni chaqiruvga qadar tayyorlash to'g'risida"gi nizomi asosida tashkil etildi. Respublikada 1995–1996-o'quv yilida 7261 ta umumta'lim maktablari, 401 ta hunar-ta'lim bilim yurtlari, 4 ta yoshlarni harbiy kasbga yo'naltiruvchi litseyda ChQBT yo'lga qo'yildi. Ularda 7094 maxsus jihozlangan harbiy sinfxona, 6127 ta harbiy maydoncha, 4226 ta gimnastika shaharchasi, 3766 ta to'siqlar maydoni tashkil etildi. ChQBT fanining o'qitilishini muvofiqlashtirib borish maqsadida Xalq ta'limi vazirligi tizimida ikki nafar, hududiy viloyat Xalq ta'limi boshqarmalariga bir nafardan mutaxassis shtat birligi kiritildi<sup>41</sup>.

ChQBT fani jami – 136 soat, undan 10 sinf o'quvchilariga 68 soat, 11 sinf o'quvchilariga esa 68 soat ajratildi. Fan dasturi "Harbiy xizmatning huquqiy asoslari", "Harbiy san'at tarixi", "Umumharbiy tayyorgarlik", "Amaliy jismoniy tayyorgarlik", "Fuqarolar himoyasi" kabi bo'limlardan iborat bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 18-dekabrda 348-son qaroriga muvofiq tasdiqlangan nizomda ChQBT sifatini oshirishdan manfaatdor davlat va jamoat tashkilotlarining ushbu sohadagi vazifalari belgilab berildi<sup>42</sup>. Fanning o'qitilishini takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-sonli<sup>43</sup> va 2017-yil 6-aprelda 187-sonli qarorlariga<sup>44</sup> muvofiq, umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun 2018–2019-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv reja tasdiqlandi. Reja asosida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani X sinfda haftasiga 2 soatdan, XI sinfda 1,5 soat o'qitilishi

---

<sup>40</sup> Forsythe G.B. Military education // Entsiclopedia of educational research (Sixth Edition). – New York, 1992.

<sup>41</sup> O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri va Respublika ta'lim markazining idoraviy arxivi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi hujjatlari. 2007. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasining 2007-yil 17-noyabrda "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining Xorazm viloyatidagi ijrosi haqidagi yig'ilishining 31-sonli qarorida belgilangan vazifalarining bajarilishi bo'yicha ma'lumotnoma, Yig'ma jild – Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Mudofaa va xavfsizlik qo'mitasi faoliyati haqida. 20-21-varaq.

<sup>42</sup> Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizom. // O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining №348-sonli qarori. 2014-yil 18-dekabr.

<sup>43</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi №140-sonli qarori, 2017-yil 15-mart.

<sup>44</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi № 187-sonli qarori, 2017-yil 6-aprel.

belgilandi. Fanning o'qitilishini uslubiy jihatdan ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, shuningdek, ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarga biriktirilganligi<sup>45</sup> sohada ijobiy siljishlarga olib keldi. Bunda jami 2027 ta umumta'lim maktablari, xususan, O'zbekiston Respublikasi DXX Chegara qo'shinlariga 389 ta, Mudofaa vazirligiga 350 ta, Bosh prokuraturaga 205 ta, Harbiy prokuraturaga 515 ta, Milliy gvardiyaga 288 ta, Davlat bojxona qo'mitasiga 14 ta, Favqulodda vaziyatlar vazirligiga 29 ta hamda Ichki ishlar vazirligiga 237 ta umumta'lim maktablari otaliqqa berildi<sup>46</sup>. Bu otaliq tashkilotlar rahbarligida ChQBT fanini o'qitishga yo'naltirilgan maxsus harbiy sport sinflari tuzilishi tizimida o'ziga xos yangilik bo'ldi. Ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-393-son qarori<sup>47</sup> asosida respublikaning 208 ta umumta'lim maktablari bazasida Jasorat maktablari» tashkil etilishi belgilandi va ular Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari hamda Milliy gvardiyaga 52 tada maktablar biriktirildi

Umumta'lim maktablarining ChQBT fani o'qituvchilari bilan butlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi Farmoni<sup>48</sup> asosida 387 nafar harbiy pensioner qisqa vaqt ichida umumta'lim maktablariga jalb etildi.<sup>49</sup> Bu muammolar yechimi to'laqonli ravishda hal qilinmaganligi sababli 2024-yil 30-sentabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Pedagogik mahorat milliy institutida o'qituvchilar bilan uchrashuvda maktablardagi ChQBT fani o'qituvchilarining 27 foizi nomutaxassis, 2 ming 750 ta maktabda ushbu fan uchun sharoit yetarli emasligini, shu bois endi ChQBT fani o'qituvchisi shtati Mudofaa vazirligiga o'tishi hamda endi bu vazifaga Qurolli Kuchlar zaxirasidagi harbiylar ishga qabul qilinishini ta'kidlab o'tdi<sup>50</sup>. ChQBT fani o'qitilishining sifat jihatidan o'sishida uning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi, Mudofaa ishlari boshqarmalari tomonidan muntazam ravishda o'rganib borilishi ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Qo'mita ishchi guruhi tomonidan 2007-yil Xorazm<sup>51</sup>, 2011-yil Jizzax<sup>52</sup>, 2013-yil Qashqadaryo viloyatidagi vaziyat o'rganib chiqildi<sup>53</sup>. O'rganish natijasida

<sup>45</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 18-dekabrda 348-son qaroriga ilova "Chaquiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni amalga oshirish tartibi to'g'risida NIZOM"/ "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2014-yil 22-dekabr, 51-son, 610-modda.

<sup>46</sup> Ermatov D.S. O'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda o'zaro hamkorlikning ijobiy natijalari va kelgusi vazifalar. //Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash asosida harbiy xizmatga tayyorlashning tashkiliy-huquqiy asoslari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2023.–Toshkent, 2023. –B.216-217.

<sup>47</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori O'quvchi-yoshlarni chaquiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-393-sonli qarori, 2024 – yil 15-noyabr.

<sup>48</sup> "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari pensionerlarini ijtimoiy himoya qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017 yil 17-fevral. №PF-4960.

<sup>49</sup> Tolmasov Sh. Professional harbiy kadrlar tayyorlash tizimi takomillashtirishda // Vatanparvar. 2017. 9- iyun.

<sup>50</sup>Chaqiriqqacha boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisi shtati Mudofaa vazirligiga o'tadi <https://kun.uz/kr/15327030>

<sup>51</sup> O'zbekiston Respublikasi "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risidagi" Qonunining Xorazm viloyatidagi ijrosi haqida ma'lumotnoma. // O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri va Respublika ta'lim markazining idoraviy arxivi Yig'ma jild – Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Mudofaa va xavfsizlik qo'mitasi faoliyati haqida. 1-3-varaq.

<sup>52</sup> O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri va Respublika ta'lim markazining idoraviy arxivi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi hujjatlari. 2011.

<sup>53</sup> O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri va Respublika ta'lim markazining idoraviy arxivi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi hujjatlari. 2011.

bildirilgan takliflar asosida Mudofaa vazirligi tomonidan ChQBT fanining o'qitilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan multimediyaviy o'quv filmlari yaratilib ta'lim muassasalariga yetkazildi. Hududlardagi mudofaa ishlari boshqarmalari hamkorligida har bir tuman, shahardagi bittadan ta'lim muassasasida namunaviy o'quv xonalari tashkil etildi<sup>54</sup>. Respublikada 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni tadbirlari doirasida tashkil etiladigan “Eng yaxshi o'qituvchi”, “Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi”, “Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik bo'yicha eng yaxshi ta'lim muassasasi” ko'rik-tanlovlari ham sohada ijobiy rol o'ynadi. Tanlovlar eng yaxshi tajribalarni ommalashtirishga imkon yaratdi.

Tanlov samaradorligidan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa, Oliy va o'rta maxsus ta'lim, Xalq ta'limi vazirliklarining 2008-yil 27-fevraldagi 47-sonli qo'shma qaroriga asosan “Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik bo'yicha eng yaxshi ta'lim muassasasi” tanlovi<sup>55</sup> o'tkazilishi yo'lga qo'yildi. Mazkur tadbirlar soha rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini kichik harbiy mutaxassislar bilan ta'minlashda Mudofaaga ko'maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotining ham o'ziga xos o'rni bor. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, respublika DOSAAFning 1991-yil 23-noyabrda bo'lib o'tgan navbatdan tashqari VIII qurultoyida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi<sup>56</sup>. Tashkilotning asosiy vazifasi etib Qurolli Kuchlarga davlat rejasi bo'yicha harbiy amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ommaviy kasblar yo'nalishida mutaxassislarni tayyorlash, ma'naviyat va harbiy vatanparvarlik targ'iboti, sportning texnikaviy va harbiy amaliy turlarini rivojlantirish<sup>57</sup> kabilar belgilandi. Ta'kidlash kerakki, Ittifoq davrida DOSAAF tizimida mavjud bo'lgan 75 ixtisoslikdan O'zbekistonda atigi 8 turi bo'yichagina mutaxassis tayyorlash yo'lga qo'yilgan, chaqiriluvchilarning atigi 10-11 foizi harbiy mutaxassislikka o'qitish bilan qamrab olingan. 8 yo'nalishda tayyorlanayotgan kichik mutaxassislar armiya ehtiyojlarini qoniqtirmas edi. Soha yo'nalishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 26-oktabrda qabul qilingan qarori asosida 1991-1992-o'quv yilida o'quv jarayoni 2 potokda 4,5 oydan etib belgilandi. O'quv yili davomida 7 yo'nalishda 1160 mutaxassis tayyorlanishi ko'rsatib o'tildi<sup>58</sup>. Asosiy e'tibor kursantlarning amaliy tayyorgarligiga qaratilib, o'quv dasturidagi 60 soat amaliy mashg'ulotlarga yo'naltirildi. O'quv yili davomida Mudofaa vazirligi tomonidan tekshirilgan 26 o'quv tashkilotining 20 tasi “yaxshi”, 6 tasi “qoniqarli” baholandi.

---

<sup>54</sup> Toshkent oliy umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurti joriy arxivi.

<sup>55</sup> G'olib va sovrindorlar taqdirlardi. // Vatanparvar. 2016. 18-mart.

<sup>56</sup> В добрый путь, “Ватанпарвар” // “Фрунзевец”, 1991 год 7 ноября, №256-257 (21646-21647). Первый республиканский съезд. // “Ватанпарвар”, 1992 год 24 августа, . №102 (741).

<sup>57</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-dekabrda PQ-4061 “Yoshlarni vatanparvarlik ruhida va jismoniy tarbiyalash hamda chaqiriluvchilarni harbiy-texnik mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash tartibini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori. O'zbekiston Mudofaasiga ko'maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotining dasturi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga 3 ilova.

<sup>58</sup> O'zR MV MA, 45- fond, 67399-ro'yhat, 1- ish, 2-4-varaq.

Mudofaa vazirligi Bosh shtabi boshlig'ining 1994-yil 23-fevraldagi buyrug'i asosida uchuvchi kadrlarga ehtiyoj oshib borishini inobatga olib Harbiy havo kuchlari tomonidan mutaxassislar tayyorlashga ixtisoslashtirilgan sinflar va laboratoriyalarni tashkil etish 1994-yil 5-apreliga qadar tugallandi va 1-sentabrga qadar maxsus sinflar aviatsiya jihozlari, o'quv-ko'rgazmali vositalar bilan ta'minlash, o'quv dasturlarini yaratish borasidagi ishlar amalga oshirildi.

O'quv kurslarini o'qituvchi mutaxassislar bilan ta'minlash 15-aprelgacha tugallandi.<sup>59</sup> 1994-yildan Farg'ona viloyat texnika maktabida "Aviatsiya jihozlar mexanigi", "Aviatsiya qurollari mexanigi", "Radioelektron jihozlar mexanigi", Yangiyo'l avtomaktabida "Aviatsiya qo'nish maydonlarida qor kuraydigan avtomobillar haydovchisi", Chirchiq avtomaktabida "ATU-S va ATU-2M avariya to'xtatish jihozlari operatori" mutaxassislari tayyorlash yo'lga qo'yildi va har bir yo'nalishda yiliga 50 kishi tayyorlanishi belgilandi. Amalga oshirilgan ishlar natijasida HHKlari uchun uchuvchilarni va parashyutchilarni tayyorlash ko'rsatkichi 1060 kishiga yetdi. Tashkilotda tayyorlangan uchuvchi kursantlarning 35 nafari (33 foiz) 1994-yili Toshkent oliy umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurti (TOUQBY)ning harbiy aviatsiya fakultetiga o'qishga kirdi.<sup>60</sup> Harbiy aviatsiya fakultetining tashkil etilishi bilan "Vatanparvar"ga uchuvchi kursantlarning amaliy uchish hamda parashyut tayyorgarligini 32 soatlik dastur asosida tashkil etilishi bo'yicha vazifa qo'yildi<sup>61</sup>.

Shu bilan birga, Toshkent milliy aviasport klubida 59, Andijon aviasport klubida 19 harbiy uchuvchi kursantlar uchish tayyorgarligi bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni o'tadilar.<sup>62</sup> Amalga oshirilgan ishlar natijasida 1995-yili 1000 dan ortiq parashyutchi va uchuvchilar tayyorlandi.<sup>63</sup> Parashyut-desant instruktorlarini tayyorlash maqsadida 80 soatlik o'quv-uslubiy kursi tashkil etildi<sup>64</sup>. Qisqa fursat ichida mutaxassislar tayyorlash 8 yo'nalishdan 15 taga<sup>65</sup>, 1995-yilda esa 30 taga<sup>66</sup> yetkazilgan bo'lsa, 2000-yilda mutaxassislar tayyorlash uch yarim barobar ortdi, 32 turdagi kasb yo'nalishida mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-dekabrda 4061-sonli qarori<sup>67</sup> bilan "Vatanparvar" MKTga qarashli ta'lim muassasalari va avtodromlar ularning asosiy vositalari, o'quv va moddiy-texnika bazasi bilan birga operativ boshqarish huquqi asosida Mudofaa vazirligi tasarrufiga o'tkazildi. Qaror bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mudofaa ishlari boshqarmalarida chaqiriluvchilarni harbiy-texnik mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash markazlari tashkil etilishi belgilandi<sup>68</sup>. Qurolli Kuchlar talablaridan kelib chiqqan holda

<sup>59</sup> O'z MA, 50-fond, 1-ro'yxat, 39-ish, 51-varaq.

<sup>60</sup> O'z MA, 50-fond, 1-ro'yxat, 18-ish, 44-46-varaq.

<sup>61</sup> O'z MA, 50-fond, 1-ro'yxat, 39-ish, 205-varaq.

<sup>62</sup> O'z MA, 50-fond, 1-ro'yxat, 39-ish, 6-varaq.

<sup>63</sup> O'z MA, 50-fond, 1-ro'yxat, 1-ish, 34-varaq.

<sup>64</sup> O'z MA, 50-fond, 1-ro'yxat, 1-ish, 36-varaq.

<sup>65</sup> O'z MA, 50-fond, 1-ro'yxat, 18-ish, 39-varaq.

<sup>66</sup> O'z MA, 50-fond, 1-ro'yxat, 52-ish, 6-varaq.

<sup>67</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni vatanparvarlik ruhida va jismoniy tarbiyalash hamda chaqiriluvchilarni harbiy-texnik mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash tartibini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi № 4061-sonli Qarori, 2018-yil 12-dekabr.

<sup>68</sup> Umarov M. Osoyishtalik va farovonlik yo'lida // O'zbekiston armiyasi. № 1(17). 2019. – B.28.

chaqiriluvchilarni 9 yo'nalishda harbiy-texnika mutaxassisliklari bo'yicha tayyorlash ham yo'lga qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-sentabrdagi 749-son qaroriga muvofiq chaqiriluvchilarni mutaxassisliklari yo'nalishida tayyorlash ikki bosqichda: birinchisi – 1-maydan 30-avgustgacha, ikkinchi bosqichi – 2-oktabrdan 1-fevralgacha amalga oshirilishi belgilandi. O'tgan yillarda "Vatanparvar" MKT yoshlarga keyingi hayot yo'llarini belgilab olishlarida ham alohida rol o'ynamoqda. Tadqiqotchi tomonidan Qurolli Kuchlar akademiyasi kursantlari orasida o'tkazilgan so'rovda respondentlarning 4,6 foizi O'zbekiston mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" MKTda o'qigan chog'ida harbiylikka havas ortishi natijasida oliy harbiy ta'lim muassasasiga o'qishga kelganligini ko'rsatib o'tganlar.

Harbiy jamoalarni shakllantirish va jipslash muddatini jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlari yordamida 10-15 foizga qisqartirishga erishish mumkin. Bu o'quvchi yoshlar orasida "Amir Temur avlodlari" "Shunqorlar" harbiy-sport o'yinlari yo'lga qo'yildi. "Shunqorlar" harbiy-sport o'yinlari ishtirokchilarining soni ham keyingi yillarda muttasil oshib bordi<sup>69</sup>. Agar 2015-yildagi musobaqalarda 1472 ta akademik litsey va kasb-hunar kollejining 50 mingga yaqin o'quvchisi ishtirok etgan bo'lsa, 2016-yilda salkam 1500 ta o'quv maskanining 75620 nafar o'quvchi ishtirok etidilar.<sup>70</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizligi xizmati chegara qo'shinlari qo'mondonining 2006-yil 12-oktabrdagi buyrug'iga asosan Chegara qo'shinlari harbiy qismlari qoshida "Yosh chegarachilar" klublari tashkil qilindi. 2009-yilga kelganda ularning soni 150 taga etib ishtirokchilar 1878 nafar o'quvchini tashkil etdi<sup>71</sup>. Mazkur musobaqalar 2017-yilga kelganda o'z safiga 20 mingdan ortiq yigit-qizlarni qamrab oldi. Tadqiqot doirasida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar akademiyasi kursantlari dissertant tomonidan o'tkazilgan so'rovnomada ularni harbiy kasbga yo'llashda harbiy-sport o'yinlari ham alohida rol o'ynaganligini ta'kidladilar. So'rovda ishtirok etganlarning (281 dan 69 tasi) 24,5 foizi "Shunqorlar", "Yosh chegarachi", "Amir Temur avlodlari" harbiy-sport o'yinlarida ishtirok etganliklari, (281 dan 52 tasi) 18,5 foizi mazkur o'yinlar harbiylik kasbini tanlashlariga turtki bo'lganligini ko'rsatib o'tdilar<sup>72</sup>.

Dissertatsiyaning "**O'rta maxsus harbiy ta'lim qurolli kuchlarga kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimi sifatida**" nomli uchinchi bobida oliy harbiy ta'lim muassasasiga kadrlar zaxirasini tayyorlovchi harbiy-akademik litseylar faoliyati o'rganiladi. O'zbekiston hukumati 1983-yil 8-yanvarda Toshkent<sup>73</sup>, 5-aprelida Samarqand, Farg'ona va Xiva<sup>74</sup> shaharlarida harbiy yo'nalishdagi Respublika maxsus maktab internatlarini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qildi. Mazkur ta'lim muassasasiga asos solinishi o'zbek millatiga mansub yoshlarga harbiy ta'lim olishga yo'l ochib berdi. Agarda o'quvchilarning milliy tarkibini olib qaralsa,

<sup>69</sup> Safarov A. Gap g'alabada haqida emas, mag'lubiyat haqida ketyapti // Vatanparvar. №59 (1200). 1999. 18-may.

<sup>70</sup> Matyoqubov N. Sharafli ishga tayyorlovchi o'ziga xos harakat. // Vatanparvar. №21(2620). 2017. 26-may.

<sup>71</sup> Matayev M. Chegarachilar izdoshlari. // Ma'rifat. № 4 (8133). 2009. 14-yanvar.

<sup>72</sup> Tadqiqotchi tomonidan Qurolli Kuchlar akademiyasi kursantlari orasida o'tkazilgan so'rovnoma.

<sup>73</sup> O'z MA, 837-fond, 1-ro'yxat, 5998-ish, 75-77-varaq.

<sup>74</sup> O'z MA, 837-fond, 1-ro'yxat, 5998-ish, 75-77-varaq.

Toshkent maxsus maktab-internatida 1985-yilda 288 o‘quvchi ta’lim olgan bo‘lsa, ulardan 248 nafari o‘zbek millati vakili bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatgich Urganch maktab internatida 278 o‘quvchining 236 nafari o‘zbek millatiga mansub yoshlar tashkil etgan<sup>75</sup>. 1985–1991-yillar ichida litsey bitiruvchilarining 400 dan ortig‘i oliy harbiy o‘quv yurtlariga o‘qishga kirdilar<sup>76</sup>. Davlat mustaqilligi qo‘lga kiritilgan bir sharoitda O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi hamda Mudofaa ishlari bo‘yicha vazirliklarining 1992-yil 1-iyundagi 161-sonli qo‘shma buyrug‘iga asosan, mazkur ta’lim muassasalari Toshkent, Samarqand, Urganch Harbiy harbiy kasbga yo‘naltiruvchi litseylar, Farg‘ona shahridagi harbiy litsey o‘quvchilarni huquqiy kasblarga yo‘naltiruvchi Respublika litseyi deb ataladi.<sup>77</sup> Tahlillar ko‘rsatdiki, har yili litsey bitiruvchilarning 80 foizi harbiy bilim yurtlariga o‘qishga kirgan<sup>78</sup>.

O‘rta maxsus ta’lim tizimidagi islohotlar talablaridan kelib chiqqan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 22-maydagi “Harbiy-akademik litseylar faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida respublikadagi mavjud to‘rtta litsey o‘quvchilarni ma’lum harbiy-kasbiy yo‘nalishida: Harbiy-telekommunikatsiya yo‘nalishidagi Toshkent akademik litseyi; Harbiy-qurilish yo‘nalishidagi Samarqand akademik litseyi; Harbiy texnik yo‘nalishdagi Farg‘ona akademik litseyi; Harbiy-yuridik yo‘nalishdagi Urganch akademik litseyi sifatida qayta tashkil etildi<sup>79</sup> va ularga ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy ta’lim muassasalari birlashtirildi<sup>80</sup>. Harbiy akademik litseylarni rivojlantirish va takomillashtirish rejalashtirilgan kompleks dastur ishlab chiqildi, 2007–2009-yillarda uning infrastrukturasi, o‘quv-moddiy bazasini takomillashtirish rejali ravishda amalga oshirildi.<sup>81</sup> Kompyuter texnikalari va umumta’lim fanlaridan o‘quv-laboratoriya jihozlari xaridi uchun 290,6 mln so‘m, qurilish-montaj va moddiy-texnik ta’minoti uchun jami 14 020,7 mln so‘m sarf qilindi. Lekin tahlillar ko‘rsatdiki, o‘qishga kirishga nomzodlar tanlovini to‘g‘ri tashkil etmaslik natijasida harbiy akademik litsey bitiruvchilarining oliy harbiy ta’limga o‘qishga yaroqlilik darajasi 2006-yilda 17,2 2007-yilda 14,6, 2008-yilda 14,3, 2009-yilda 18,1 va 2010-yilda 16,4 foizni tashkil etdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh. Mirziyoyev “Professional harbiy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish doimo e’tibor markazida bo‘lishi

<sup>75</sup> O‘z MA, 94-fond, 7-ro‘yxat,, 6885-ish, 86-varaq; Harbiy yuridik yo‘nalishdagi Urganch akademik litseyi joriy arxivi materiallari.

<sup>76</sup> O‘quvchilarni harbiy kasblarga yo‘naltiruvchi litsey-maktabi. Toshkent, 1994, B.1-9

<sup>77</sup> O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Farg‘ona “Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litseyi pasporti. – Farg‘ona. 2019. – B.2.

<sup>78</sup> Илдар М. Быть истинными патриотами// Народное слово, 11 января 2007 года, № 8(4131).

<sup>79</sup> “O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Mudofaa vazirligi va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 22-maydagi PP-641-sonli qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida”gi Qaroriga 1-ilova. Harbiy kasbga yo‘naltirilgan litseylar hamda ular negizida tashkil etilayotgan harbiy akademik litseylar ro‘yxati”.//O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy kadrlar tayyorlash boshqarmasi ish hujjatlari.

<sup>80</sup> Справка-доклад “О деятельности академических лицеев с военно-профессиональным уклоном”. // Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги ҳарбий кадрлар тайёрлаш бошқармаси иш ҳужжатлари.

<sup>81</sup> “Сведения о ходе выполнения постановления Президента Республики Узбекистан от 22 мая 2007 года за №ПП-641 «О мерах по организации деятельности военно-академических лицеев”.//Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги ҳарбий кадрлар тайёрлаш бошқармаси иш ҳужжатлари.

lozim. Bu tizim zamon talablari, jahon harbiy fani va harbiy san'atida erishilgan yutuqlardan ortda qolmasligi kerak. Harbiy bilim yurtida haqiqatdan ham ta'lim olishga munosib, yuksak aql-zakovat va yetakchilik qobiliyatiga ega bo'lgan yoshlarni aniqlash uchun o'qishga tanlab olish talablarini amalga oshirish lozim", – deya ta'kidladi<sup>82</sup> hamda "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining 2017-yil 30-iyunda bo'lib o'tgan IV qurultoyida so'zlangan nutqida "Yurtimizda yoshlarga harbiy ta'lim-tarbiya beradigan kursantlar maktablariga "Temurbeklar maktabi" deb nom bersak"<sup>83</sup>, – degan taklif berilishi harbiy akademik litseylar faoliyatida islohotlar jarayonini boshlab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-avgustdagi PF-5106-sonli farmoniga<sup>84</sup> muvofiq barcha harbiy akademik litseylarga "Temurbeklar maktabi" maqomi berilishi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini isloh qilish va yanada rivojlantirish vazifalari to'g'risida" qarorida belgilangan vazifalarni ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-yanvardagi 14/1-2428-sonli topshirig'iga muvofiq<sup>85</sup> 2019-yil 28-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4375-sonli qarori qabul qilindi. Qaror asosida O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar va Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Milliy gvardiya tizimida "Temurbeklar maktabi" tashkil etildi<sup>86</sup>.

"Temurbeklar maktabi"ga qiziqish yoshlar va ota-onalar orasida ortdi. Mana shuni inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi PQ-4609-son qarori bilan Surxondaryo viloyati Termiz shahrida "Yosh chegarachilar" harbiy-akademik litseyi<sup>87</sup>, 2023-yil 12-iyundagi PQ-184-sonli qarori bilan esa Xorazm viloyati Urganch shahrida Jaloliddin Manguberdi harbiy-akademik litseyi<sup>88</sup> tashkil etildi. Harbiy-akademik litseylar infrastrukturasi, o'quv-moddiy bazasi takomillashtirildi. Toshkent, Farg'ona "Temurbeklar maktabi" o'quv binosi va inshootlari yangidan zamonaviy shakl va andozalar asosida qayta ta'mirdan chiqarildi.<sup>89</sup> Nukus "Temurbeklar maktabi"ning o'quv sinflari, sport zali, ma'ruzalar zali, ma'rifat zalini o'zida jamlangan 3 qavatli 7949 kv/m bino va 2 qavatli 1253 kv/m 200 o'rinli yotoqxona, muhandislik

---

<sup>82</sup> Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Qurolli Kuchlar – Vatanimiz va xalqimizning mustahkam qo'rg'oni. Vatn himoyachilari kuni va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik nutqi.– Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 226 b.

<sup>83</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining 2017-yil 30-iyunda bo'lib o'tgan IV qurultoyida so'zlangan nuqti. Gazeta.uz// [https:// www.gazeta.uz](https://www.gazeta.uz).> nutq.

<sup>84</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab quvvatlash to'g'risida"gi 2017-yil 5-iyundagi PF-5106-sonli Farmoni.

<sup>85</sup> O'ZR PAA, 975-fond, 30-ro'yxat, 4906-ish, 25-varaq.

<sup>86</sup> O'ZR PAA, 975-fond, 30-ro'yxat, 4906-ish, 27-varaq.

<sup>87</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 11.08.2020. №473 "Yosh chegarachilar" harbiy-akademik litseyi faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida//Elektron manba <https://kadrovik.uz/uz/doc?id=631371>.

<sup>88</sup> Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litsey faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi 2023-yil 12-iyundagi PQ-184-sonli Qarori.//Elektron manba: <https://lex.uz/ru/docs/6492233>.

<sup>89</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent "Temurbeklar maktabi" joriy ish yuritish materiallari

tarmoqlari rekonstruksiya qilindi. Mazkur ishlarga 29 mlrd 950 mln so‘m sarflandi.<sup>90</sup>

“Yosh chegarachilar” harbiy akademik litsey bunyod etish va jihozlash uchun 62,5 milliard so‘m mablag‘ sarflandi. Barcha qulayliklarga ega yotoqxonalar, oshxona, sport zal, sport maydoni, 10 ming 460 dan ortiq kitob fondiga ega axborot-resurs markazi, ma’naviy-ma’rifiy xonalar tashkil qilindi.<sup>91</sup> Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyda 300 o‘rinli o‘quv binosi yangidan qurildi. Muassasada yopiq turdagi sport zal hamda ochiq maydondagi sport shaharchasi, saf maydoni, 1 ta ARM, 300 o‘rinli yotoqxonalar, 300 o‘rinli oshxona, 300 o‘rinli anjumanlar zali, 24 ta o‘quv xonasi, 2 ta kompyuter xonasi, kimyo, fizika va biologiya laboratoriyalar xonalari ishga tushirildi.<sup>92</sup> O‘quv xonalari eng so‘nggi rusumdagi multimedia va kommunikatsiya vositalari bilan jihozlandi.<sup>93</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2019-yil 6–7-may kunlari Farg‘ona<sup>94</sup>, 2022-yil 7-yanvarda Davlat xavfsizlik xizmatining “Temurbeklar maktabi”ga<sup>95</sup>, 2023-yil 13-mart kuni “Yosh chegarachilar”<sup>96</sup>, 2024-yil 1-mart kuni Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litseylarga<sup>97</sup> rasmiy tashrifi doirasida litseylarning infrastrukturasi, faoliyatini yanada takomillashtirish borasida bergan ko‘rsatmalarida o‘z aksini topdi. Harbiy akademik litseylarda ta’lim sifati oshdi. Bu o‘quvchilarning oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirishlari hamda turli fan olimpiadalaridagi ishtiroklarida namoyon bo‘ldi.

2023-yildan “Temurbeklar maktabi” o‘quvchilari o‘rtasida matematika, fizika, tarix va chet tillaridan “Amir Temur izdoshlari” fan olimpiadasi hamda “Amir Temur avlodlari” harbiy-sport musobaqalarini o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi. “Temurbeklar maktabi” o‘quvchilari xalqaro fan olimpiadalarida ham ishtirok etmoqda. Jumladan, 2019-yil 19-23-mart kunlari Rossiya Federatsiyasida oliy ta’limgacha ta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida matematika va fizika fanlaridan o‘tkazilgan xalqaro olimpiadada Mudofaa vazirligi tasarrufidagi “Temurbeklar maktabi” jamoasi umumjamoasi hisobida faxrli 2-o‘rinni egalladi<sup>98</sup>. 2024-yil 7–10-aprel kunlari Urganchdagi Jaloliddin Manguberdi nomli harbiy

<sup>90</sup> Nukus “Temurbeklar maktabi” HAL to‘g‘risida ma’lumotlar//Nukus “Temurbeklar maktabi” Nukus “Temurbeklar maktabi” joriy ish yuritish materiallari

<sup>91</sup> Mullayeva S. “Yosh chegarachilar” harbiy-akademik litseyi tashkil etildi//Elektron manba: <https://www.surxondaryo.uz/public/oz/blog/xokimlik-yangiliklari/1051>;

<sup>92</sup> Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyi to‘g‘risida ma’lumot// harbiy akademik litsey joriy ish yuritish materiallari.

<sup>93</sup> Prezident Shavkat Mirziyoyev Urganch shahridagi Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyini borib ko‘rdi. / Prezident Shavkat Mirziyoyev 1-mart kuni Urganch shahridagi Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyga tashrifi to‘g‘risida ma’lumot/ harbiy akademik litsey joriy ish yuritish materiallari.

<sup>94</sup> Prezident Shavkat Mirziyoyev: “Temurbeklar maktabi”ning barcha bitiruvchilari o‘zi xohlagan oliyog‘da grant asosida o‘qiydi / Elektron manba: <https://daryo.uz/k/2019/05/07>.

<sup>95</sup> Prezident Shavkat Mirziyoyev DXX harbiy ta’lim muassasalari faoliyati bilan tanishdi//Elektron manba: <https://qalampir.uz/news/prezident>.

<sup>96</sup> Elektron manba: <https://daryo.uz/k/2023/03/13/Shavkat-Mirziyoyev-termizdagi-yosh-chegarachilar-litseyini-borib-ko-rdi>.

<sup>97</sup> Prezident Shavkat Mirziyoyev Urganch shahridagi Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyini borib ko‘rdi / Elektron manba: <https://xs.uz/uzkr/post/Prezident-Shavkat-Mirziyoyev-Urganch-shahridagi-jaloliddin-manguberdi-nomidagi-harbiy-akademik-litseyini-borib-ko-rdi>.

<sup>98</sup> “Temurbeklar maktabi” o‘quvchilari Rossiyada o‘tkazilgan xalqaro olimpiadada ikkinchi o‘rinni egalladi. Elektron manba: Daryo.uz. <https://daryo.uz> > 2019/24/03.

akademik litseyda matematika fanidan o'tkazilgan Xalqaro fan olimpiadasida Rossiya, Belarus va Qozog'iston davlatlari, O'zbekistondan Urganchdagi Jaloliddin Manguberdi nomidagi hamda Farg'onadagi "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyi jamoalari ishtirok etdilar<sup>99</sup>. Xalqaro fan olimpiadasi natijalariga ko'ra, umumjamo'a hisobida Rossiya Federatsiyasi jamoasi – 1, Jaloliddin Manguberdi nomli harbiy akademik litsey – 2, Belarus 3-o'rinni egalladi<sup>100</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-yanvardagi qarori<sup>101</sup> ijrosini ta'minlash va oliy harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun nomzodlarni tayyorlash tizimini samarali tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-apreldagi qaroriga<sup>102</sup> muvofiq mamlakatning 29 ta akademik litsey va kasb-hunar kollejlari maxsus guruhlar tashkil etildi. Ta'kidlash kerakki, "Temurbeklar maktabi"ga o'qishga kirishga nomzodlar soni keskin ravishda oshdi. Masalan, Toshkent "Temurbeklar maktabi"ga 2019/2020-o'quv yilida 998 ta hujjat topshirildi. Bir o'ringa 9,9 tadan nomzod to'g'ri keldi. Xuddi shunday vaziyat qolgan "Temurbeklar maktablari"da ham kuzatildi. 2022-yili Davlat xavfsizlik xizmatining "Temurbeklar maktabi"da<sup>103</sup> o'qish istagini bildirgan 5 ming 600 nafar talabgordan eng bilimli 100 nafari saralab olindi.<sup>104</sup> O'tgan o'n yil ichidagi eng yuqori ko'rsatkich Toshkent harbiy akademik litseyda 2009-yilda – 6,96, Samarqand harbiy akademik litseyda 2010-yilda – 6,50, Farg'ona harbiy akademik litseyda 2010-yilda – 7,45, Urganch harbiy akademik litseyda 2011-yilda – 3,40 ni tashkil etgan<sup>105</sup>. 2023/2024-o'quv yilidan O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining Toshkent "Temurbeklar maktabi"ga qiz bolalarni o'qishga qabul qilish boshlandi. Amalga oshirilgan ishlar oliy harbiy ta'lim muassasasi tizimiga munosib kadrlar zaxirasini yaratish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Tadqiqotning **"O'zbekistonda mustaqillik yillarida oliy harbiy ta'lim tizimini xalqaro talablar asosida qayta tashkil etilishi va takomillashtirilishi"** nomli to'rtinchi bobida oliy harbiy ta'lim muassasalar tarixi va ularda kadrlar tayyorlash masalalari tadqiq etiladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1992-yil 14-yanvarda "O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan

---

<sup>99</sup> Urganch shahridagi Jaloliddin Manguberdi harbiy akademik-litseyida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlarning harbiy-akademik litsey va maktablari o'quvchilari o'rtasida matematika fani bo'yicha xalqaro olimpiada o'tkazilganligi to'g'risida ma'lumot/ oliy harbiy ta'lim muassasasi joriy ish yuritish materiallari.

<sup>100</sup> Протокол результатов выполнения заданий в абсолютном командном первенстве 4 финального (международного) этапа Международной олимпиады воспитанников довузовских образовательных учреждений государств-участников СНГ по математике в 2024 году / Jaloliddin Manguberdi" nomli harbiy akademik litsey joriy ish yuritish materiallari.

<sup>101</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini isloh qilish va yanada rivojlantirish vazifalarini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarori, 2017-yil 24-yanvar.

<sup>102</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy harbiy ta'lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2017-yil 21-aprel.

<sup>103</sup> Президент DXX harbiy ta'lim muassasalari faoliyati bilan tanishdi/Elektron manba: <https://qalampir.uz/news/prezident-harbiy-talim-muassasalari-faoliyati-bilan-tanishdi-52840>.

<sup>104</sup> O'sha joyda.

<sup>105</sup> Samarqand "Temurbeklar maktabi" joriy ish yurituv materiallari. // Samarqand "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyi joriy ish yurituv materiallari. Samarqand "Temurbeklar maktabi"da o'quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda 2017-yil sentabr-oktabr oylari davomida amalga oshirilgan ishlar haqida ma'lumot.

harbiy qismlar va harbiy o'quv yurtlari to'g'risida"gi qarori<sup>106</sup> qabul qilindi. Mudofaa vazirining 1993-yil 26-martdagi buyrug'i asosida respublikadagi bilim yurtlari 1993-yil 1-apreldan boshlab Toshkent oliy umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurti (TOUQBYu), Chirchiq oliy tank-muhandislik qo'mondonlik bilim yurti (ChOTMQBYu) va Samarqand oliy harbiy avtomobil-muhandislik qo'mondonlik bilim yurti (SOHAMQBY) deb nomlanib kadrlar tayyorlashning ko'p tarmoqli tizimiga o'tkazilishiga turtki bo'ldi. Ta'lim jarayoni nazariy va amaliy tayyorgarliklardan tashkil topib, kursantlarning 4 yillik ta'lim dasturi 5070 soatga mo'ljallandi. O'quv mashg'uloti vaqtining 70 foizdan ko'pi kursantlarning harbiy jangovar texnika va qurollardan amaliy foydalanishiga yo'naltirildi<sup>107</sup>. SOHAQMBY O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Bosh shtabining 1993-yil 10-maydagi yo'riqnomasi asosida 1994-yildan bilim yurtida aerodrom-texnik xizmati, front orti ta'minoti, muhandislik qo'shinlari va tarbiyaviy ishlar organlariga ofitser kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. TOUQBY bazasida 1993-yilda tashkil etilgan artilleriya vzvodi alohida fakultet sifatida 1998-yil 1-avgustidan SOHAQMBY tarkibida faoliyat boshladi. Ko'p tarmoqli harbiy kadrlar tayyorlash tizimiga o'tilishi bilan TOUQBYda harbiy havo kuchlari ofitser mutaxassislari – harbiy uchuvchilar fakulteti tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 18-martdagi PF-145-22-sonli farmoni, Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 310-41-sonli 20-iyundagi "Jizzax oliy harbiy aviatsiya bilim yurtini tashkil etish to'g'risida"gi qarori asosida mazkur fakultet Jizzax aviatsiya bilim yurti sifatida 1994-yil 3-oktabridan o'z faoliyatini boshladi<sup>108</sup>. Bilim yurti tashkil topgan dastlabki davrda 8 ta yo'nalishda mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Uchuvchilar fakultetida o'qish muddati 4 yil, texniklar fakultetida esa 3 yil etib belgilandi<sup>109</sup>. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3725-sonli qaroriga<sup>110</sup> muvofiq Jizzax oliy harbiy aviatsiya bilim yurti negizida Qarshi shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy harbiy aviatsiya bilim yurti tashkil etildi<sup>111</sup>. 1992-yil 24-martda Milliy xavfsizlik xizmati qoshida Chegara qo'shinlari boshqarmasi tashkil etildi. Qo'shinlari tashkil etilgan vaqtda uning saflaridagi harbiy xizmatchilarning 10 foizi mahalliy millat vakillari bo'lib, ular ham asosan oddiy askar va serjant lavozimlaridagi harbiy xizmatchilar edi. 1993/1994-o'quv yilidan TOUQBYda chegarachi ofitserlarni tayyorlash ishlari yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga asos solingach O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993-yil 12-fevraldagi 560-sonli farmoni asosida

---

<sup>106</sup> O'zR MV MA, 45-fond, 71815-ro'yxat, 1-ish, 63-varaq.

<sup>107</sup> Milliy ofitser kadrlarni tayyorlash.//O'zbekiston Qurolli Kuchlari. Harbiy sharhnoma. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi. 1998. – B. 35.

<sup>108</sup> Harbiy havo kuchlari shonli an'analarini asrash va davom ettirish yo'lida. (Asosiy tarixiy voqealar xronologiyasi). – Qarshi. 2019. –B.3-4.

<sup>109</sup> Дан старт первым «соколам»! // Ватанпарвар. 1997. № 123 (919). 14 октябрь; Каллошин В., Икромов Ш. Дипломы и лейтенантские звания присвоены первым выпускникам Джизакского высшего военного авиационного института // Ватанпарвар. 1997. № 124 (920). 16 октябрь.

<sup>110</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi harbiy Havo kuchlarining jangovar salohiyatini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3725 Qarori, 2018-yil 14-may.

<sup>111</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy harbiy aviatsiya bilim yurtida kadrlar tayyorlash faoliyatini o'rganish bo'yicha tahliliy ma'lumotnoma // O'zbekiston Respublikasi Oliy harbiy aviatsiya bilim yurti joriy arxivi.

Toshkent elektr aloqa instituti (hozirgi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti) bazasida aloqachi ofitserlarni tayyorlash boshlandi. O'qishga qabul qilinganlarning 60 foizini o'zbek millatiga mansub yoshlar tashkil etdi. 1994–1995-o'quv yilida bu ko'rsatkich 84 foizga chiqdi.<sup>112</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi 4122-sonli farmoniga asosan Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa sohasidagi yuqori malakali ofitser kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, ushbu sohada harbiy ilmiy tadqiqotlarni tashkillashtirish maqsadida Maxsus fakultet Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti sifatida qayta tashkil etildi va 7 yo'nalishda malakali kadrlar tayyorlash belgilab berildi.<sup>113</sup> Toshkent viloyati Zangiota tumanida institut uchun yangi bino qurildi. 2019-yil 26-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M. Mirziyoyevning mazkur institutga tashrifi institut faoliyatida yangi bir bosqichni boshlab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 10-iyuldagi 203-sonli qarori bilan Toshkent tibbiyot akademiyasi huzurida Harbiy-tibbiyot fakulteti tashkil etilib, u o'z faoliyatini 2013-yil 17-iyuldan boshladi. Fakultetda 5 ta ixtisoslashtirilgan kafedralari tashkil etilib ular o'z yo'nalishida malakali kadrlarni tayyorlay boshladilar. Tadqiqotlar ko'rsatdiki, harbiy ta'lim tizimida amalga oshirilgan ishlar natijasida 1997-yilda mutaxassislar tayyorlash 1991-yildagi 3 yo'nalishdan 43 tagacha o'sdi<sup>114</sup>. Harbiy ta'limning optimallashtirilishi natijasida 2023-yilga kelganda harbiy mutaxassislar 33 yo'nalish bo'yicha tayyorlanishi amalga oshirilidi<sup>115</sup>.

Malakali harbiy kadrlar tayyorlashda O'zbekistonning 1994-yil iyul oyida NATOning "Tinchlik yo'lidagi hamkorlik" Dasturiga qo'shilishi ham ijobiy rol o'ynadi. Dastur doirasida Germaniya tomonida 1996-yilda aviatsiya mutaxassislarini tayyorlash masalasida<sup>116</sup>, NATO katta ofitserlar uchun mudofaa masalalari bo'yicha kollejida O'zbekiston Qurolli Kuchlari vakilini o'qitishda amaliy yordam ko'rsatish<sup>117</sup>, havo xujumidan mudofaa, uchuvchi ekipajlari hamda xavo harakati dispetcherlari uchun ingliz tilini o'rganish kurslariga taklif bilan chiqqan.<sup>118</sup> 1997-yil 14-avgustda AQSh kongressi senatori Fil Grem O'zbekistonda bo'lganida AQShdagi mavjud uchta harbiy akademiya hamda yetti harbiy kollejlarda O'zbekiston uchun kvota asosida 43 o'rin ajratilishi mumkinligi

---

<sup>112</sup> Aminov A. Место учеба специальный факультет. // Vatanparvar. № 40 (522). 1995. 4-aprel.

<sup>113</sup> O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga 30 yil. –Toshkent. Zamin nashr, 2022. – B.102-103.

<sup>114</sup> Асранов Ш.М. Олий ҳарбий таълим замон талаби даражасида.//Ватан ҳимояси – муқаддас бурч. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б.82-88.

<sup>115</sup> O'zbekistonda harbiy fan rivojidadagi o'zgarishlar muhokama qilindi// <https://uz.tafsilar.info/novosti-uzbekistana>.

<sup>116</sup> O'zR PAA, 975-fond, 26-ro'yxat, 28-ish, 9-varaq. IV tom, – Bundesverg bilan harbiy hamkorlik to'g'risida, O'zMV, 29.02.1996, №11/4/51.

<sup>117</sup> O'zR PAA, 975-fond, 26-ro'yxat, 27-ish, 2-varaq. III tom,–Колледж обороны НАТО Директор академических программ. Министру Обороны Республики Узбекистан.

<sup>118</sup> O'zR PAA, 975-fond, 26-ro'yxat, 27-ish, 11-varaq. III tom, – Колледж обороны НАТО Директор академических программ. Министру Обороны Республики Узбекистан.

ta'kidlab o'tdi.<sup>119</sup> Mazkur taklifni o'rganib chiqqan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi bu keng miqyosda o'qituvchilar, tinglovchilar va kursantlarni almashish, o'qitishda tajriba almashish, O'zbekistonning harbiy ta'lim va o'qitish (IMET) doirasidagi ishtirokini kengaytirish, AQSh harbiy ta'lim muassasalarida imtiyozli ravishda ta'lim olish imkoniyatlarini vujudga keltiradi deb qaradi<sup>120</sup>. Amalga oshirilgan hamkorlik doirasida 1994-yildan 2005-yilgacha bo'lgan davrda 148 harbiy xizmatchini chet davlatlarda ta'lim olishlariga imkoniyat yaratdi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasida qo'shni davlatlar bilan tuzilgan o'zaro harbiy hamkorlik doirasida Tojikiston, Qozog'iston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy professor o'qituvchilari uchun malaka oshirish kurslarida tahsil olishlariga ko'maklashib kelmoqda.<sup>121</sup>

2003-yil 1-mayda Toshkent umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurti (TOUQBY), 2003-yil 29-mayda Jizzax oliy harbiy aviatsiya bilim yurti (JOHABY), 2004-yil 14-mayda Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti (ChOTQMBY), 2004-yil 26-oktabrida Samarqand oliy harbiy avtomobil-muhandislik qo'mondonlik bilim yurti (SOHAMQBY)ni isloh etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi. Islohotlar doirasida harbiy harakatlar jarayonini ta'minlab beruvchi "Harbiy topografiya", "Aloqa vositalarini boshqarish", "Harbiy muhandislik tayyorgarligi", "Ommaviy qirg'in qurollaridan himoyalash" kabi fanlar 2005-yildan o'quv dasturidan joy oldi va ular kafedrada tashkil etilgan "Jangovar ta'minot sikli" tarkibiga kiritildi. 2009-yili TOUQBYda "Qo'shinlarni harbiy harakatlarini modellashtirish va simulyatsiya qilishni axborotlashtirish texnologiyalari" sikli tashkil etildi.

Zamonaviy kompyuterlar bilan maxsus jihozlangan markazda "Yanus" hamda "Jangovar harakatlarning real holatiga yaqinroq bo'lgan boshqaruvni modellashtirish va rejalashtirish bo'yicha tavsiyalash mazmunini beradigan "Operation Flashpoint" dasturi simulyatsiyasi tizimi o'quv jarayoniga kiritildi. O'quv mashg'ulotlarini maxsus GIS "Panorama", "JCATS", "Yanus", "SoreIDRAW", "taktik-uz" shrifllari kabi modellashtirish, simulyatsiyalash va ma'lumotlarni umumlashtirish dasturlari orqali amalga oshirish yo'lga qo'yildi. "Akadempribor" ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi hamkorligida 2002-yili ChOTMQBYning Qurollanish va otish kafedrasida "Humo" tungi ko'rish asbobi sinovdan muvaffaqiyatli o'tkazildi. 2004-yili otish shaharchasida zenit raketa qurolidan otish kompyuter panorama sinfini, Qurollanish va otish kafedrasida T-62 hamda T-72 tanklardan otish trenajyorlarini ishga tushirishga erishildi.<sup>122</sup> 2012-yilda Taktika kafedrasida tashkiliy tuzilishi qayta ko'rib chiqilib, unda ofitser kadrlarni maxsus va terrorizmga qarshi harakatlar taktikasiga o'qitish ilgari surildi.

<sup>119</sup> O'zR PAA, 975-fond, 26-ro'yxat, 192-ish, 322-varaq. II tom, 322-bet – Отчет о встрече в Министерстве обороны с делегацией конгрессменов США 14.08.1997 года.

<sup>120</sup> O'zR PAA, 975-fond, 26-ro'yxat, 64-ish, 19-varaq. II tom, – Справка-доклад о военном сотрудничестве между Республикой Узбекистан и США.

<sup>121</sup> O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi joriy ish yuritish ma'lumotnomasi.

<sup>122</sup> Umarmulov A. Birinchi bo'lish mas'uliyati. // Ma'rifat. № 4 (8341). 2011. 12-yanvar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 29-maydagi<sup>123</sup> hamda 2004-yil 31-yanvardagi qarorlari<sup>124</sup> oliy harbiy ta’lim muassasalarini zamonaviy qurol-aslahalar, harbiy texnikalar va trenajyorlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan butlash, o‘quv jarayoniga modellashtirish va simulyatsiya usullarini joriy etishda yangi bosqichni boshlab berdi<sup>125</sup>. JOHABYda tahsil olayotgan vertolyot uchuvchisi yo‘nalishidagi kursantlarning amaliy bilim va ko‘nikmalarini yanada oshirish maqsadida moddiy-o‘quv baza 2012-yilda yangi zamonaviy AK-3-1, AS-350 “Eurocopter” vertolyotlari bilan jihozlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh.M. Mirziyoyev 2018-yil 10-yanvar kuni o‘tkazilgan Xavfsizlik kengashi yig‘ilishida Mudofaa vazirligidagi ko‘plab mansabdor shaxslar eski usullar bilan ishlab harbiy kadrlar tayyorlash masalasiga jiddiy e‘tibor qaratmagani, zarur hollarda mustaqil qaror qabul qilishda ularga qat’iyat yetishmagani sababli akademiyada o‘quv jarayonini tashkil qilishda eskicha yondashuvlar saqlanib qolayotganligini, bunday holat bilan murosa qilib bo‘lmasligi, harbiy kadrlar tayyorlash masalasida doimo zamon bilan birga qadam tashlash lozimligi, kerak bo‘lsa, undan oldinda yurish zarurligini alohida ta’kidlab o‘tdi. “Kursantlar va tinglovchilar ta’lim sohasida eng ilg‘or, innovatsion bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarur. Mana – bizning asosiy maqsadimiz”, – deb ko‘rsatdi davlat rahbari.<sup>126</sup> Natijada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-apreldagi qaroriga asosan Toshkent oliy umumqo‘shin qo‘mondonlik bilim yurti bazasida Toshkent OUQBY va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasini o‘zida mujassamlashtirgan mutlaqo yangi Qurolli Kuchlar akademiyasi tashkil topdi. Qaror asosida Toshkent OUQBY 2018-yilning 9-iyunidan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasining Umumqo‘shin fakultetiga aylantirildi. Akademiyaga taktik bo‘g‘im ofitserlari (4 yillik bakalavr o‘quv dasturi bo‘yicha), operativ-taktik bo‘g‘imlar ofitserlari (1 yillik va 2 yillik magistr o‘quv dasturi bo‘yicha), harbiy ilmiy kadrlar (3 yillik falsafa doktori (PhD) o‘quv dasturi) hamda ofitser va generallarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash vazifalari yuklatildi. Akademiyada harbiy kadrlar tayyorlashga yo‘naltirilgan quyidagi 18 ta kafedra tashkil etildi.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev 2023-yil 13-yanvarda Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi yig‘ilishida hozirgi kundagi qurolli mojarolarni inobatga olgan holda, zamon talabiga javob beradigan safarbarlik bo‘yicha qonun ishlab chiqish to‘g‘risida aniq vazifalar berdi<sup>127</sup>.

---

<sup>123</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining Jizzax oliy harbiy aviatsiya bilim yurtida aviatsiya mutaxassislarini tayyorlashni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2003-yil 29-may.

<sup>124</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi oliy harbiy o‘quv yurtlari o‘quv moddiy-texnik bazasini 2004–2007-yillarda takomillashtirishning qo‘shimcha choralari to‘g‘risida”gi qarori, 2004-yil 31-yanvar.

<sup>125</sup> Normatov Sh. Milliy armiyamiz islohotlari odimlari // O‘zbekiston armiyasi. №1 (9).2017. –B.14.

<sup>126</sup> Qarang: Shavkat Mirziyoyev Qurolli Kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir. (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi. 2018. 10-yanvar. / Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T.: O‘zbekiston, 2018, 2020. – B. 163.

<sup>127</sup> Mirziyoyev Sh.M. Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishidagi nutqidan / T.: O‘zbekiston, 2023.

